

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

## TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLARNING QADRSIZLANISHI VA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Shaymatov Akmal Djumayevich**

BMA magistiri

### ANNOTATSIYA

Maqolada Tijorat banklarida aktivlarning qadrsizlanishi va hisobini takomillashtirish tijorat banklarida aktivlarni tarkibi va ularni guruhlash, muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularni paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, ularning tahlili asosida o'rganilgan. Shuningdek, banklarning kreditlash jarayonidagi muaamoli kreditlarga olib keluvchi belgilari ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqolada tijorat banklarida aktivlarni tarkibi va ularni guruhlash, muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularni paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, ularning tahlili asosida o'rganilgan. Shuningdek, banklarning kreditlash jarayonidagi muaamoli kreditlarga olib keluvchi belgilari ham yoritilgan.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОЦЕНКИ И УЧЕТА АКТИВОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

### АННОТАЦИЯ

В статье совершенствование амортизации и учета активов в коммерческих банках исследуется на основе анализа состава и группировки активов коммерческих банков, причин возникновения проблемных активов, а также внутренних и внешних факторов, влияющих на их появление. Также освещены признаки, которые приводят к приему кредитов в процессе кредитования банков.

**Ключевые слова:** В статье на основе их анализа изучен состав активов коммерческих банков и их группировка, причины возникновения проблемных активов, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на их возникновение. Также освещены признаки, которые приводят к приему кредитов в процессе кредитования банков.

**IMPROVING ASSET VALUATION AND ACCOUNTING IN  
COMMERCIAL BANKS  
ANNOTATION**

In the article, the improvement of asset depreciation and accounting in commercial banks is studied based on the analysis of the composition and grouping of assets in commercial banks, the reasons for the emergence of problem assets, and internal and external factors affecting their emergence. Also, the signs that lead to acceptable loans in the lending process of banks are also covered.

**Keywords:** The composition of assets in commercial banks and their grouping, the reasons for the emergence of problem assets and the internal and external factors affecting their emergence, based on their analysis, are studied in the article. Also, the signs that lead to acceptable loans in the lending process of banks are also covered.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reytingko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli va “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli Qarorlarida moliya bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, xususan umum qabul qilingan xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqori darajaga chiqishini ta'minlash asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Jumladan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga (Bazel III standartlari) muvofiq, tijorat banklarida aktivlarining sifatini tasniflash va ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar yaratish jarayoni yanada takomillashtirildi.

Markaziy bank tomonidan Jahon banki va Halqaro valyuta jamg'armasining halqaro ekspertlari bilan birgalikda respublika bank nazoratiga oid me'yoriy xujjatlarni xalqaro standartlar, shu jumladan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish loyihasi asosida amalga oshirildi.

Ushbu loyiha doirasida ishlab chiqilgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi 2015 yil 13 iyundagi 14/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Mazkur nizomda aktivlarni tasniflash toifalarining nomlari jumladan, “yaxshi” kreditlar – “standart” kreditlarga, “standart” kreditlar – “substandart” kreditlarga, “substandart” kreditlar – “qoniqarsiz” kreditlarga o'zgartirilgan.

Banklar soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan foyda hisobidan ushbu nizom kuchga kirgan sanadan e'tiboran ajratilib, hisobot sanasiga “standart” sifatida tasniflangan kreditlar (aktivlar) qoldig'iga 1 foiz miqdorida zaxiralar tashkil qilinishi joriy qilindi.

Mazkur zaxira “Standart” deb tasniflangan kreditlarning bank kapitali tarkibida zaxiralar yaratiladi va bu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur nizomda tijorat banklari tomonidan qorxonalarining qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarini tasniflashning aniq omillari ko'rsatilgan. Jumladan,

oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – “qoniqarsiz” sifatida;

oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – “shubhali” sifatida;

oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya sifati – “umidsiz” sifatida tasniflanadi.

Nizomda keltirilgan buxgalteriya o'tkazmalari amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirildi hamda ular to'ldirildi.

Yuqorida keltirilgan qoidalarning joriy qilinishi tijorat banklari tomonidan muddati o'tgan, sud jarayonidagi kreditlarni undirish va bank balansiga olingan mulklarni sotish bo'yicha choralarni yanada kuchaytiradi va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish imkoniyatini yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlaydi.

Ushbu Nizom kuchga kirishi munosabati bilan Markaziy bankning “Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibi (ro'yxat raqami

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

632, 11.02.1999 у.) va unga o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi Qarori o'rnatilgan tartibda Adliya vazirligidan 2015 yil 14 iyulda 632-3-sonli bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

## REFERENCES

Salim Togaev, & Aslbek Utkirov. (2023). The impact of human resources on improving the quality of financial services. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(7), 474–479.

Yo'riqnoma (2015) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 14 iyulda 2696-sonli «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Дробозина Л.А. (2000). Финансы, денежное обращение, кредит –Москва. ЮНИТИ, - 329 с.

Дудинец Л.А. (2015). Теоретические подходы к определению сущности проблемных активов банка. *Экономика и банки*, (2), 28-35. извлечено от <https://ojs.polessu.by/EB/article/view/398>

Лаврушина О.И. (2002). Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент)/ – М.: Юристъ, -456-с.

Роуз П. (1997). Банковский менеджмент. Пер. С англ. –М.: Дело,-192 с.

Тогаев, С. (2019). Bank risklari o'quv qo'llanma.

Тухтабаев У.А. (2006). Муаммоли кредитлар ва уларни бартараф этиш йўллари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун автореферати. –Т.: